NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-9]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

ALISHER NAVOIYNING “SABA’I SAYYOR” DOSTONIDA QO‘LLANGAN KOSMONIMLAR

Xo‘janiyazova Shahnoza Satimboyevna
Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsenti., f.f.f.d (PhD)
shahnozaxon8686@mail.ru
ORCID: 0000-0001-9382-724X

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” asari so‘z boyligida qo‘llangan kosmonimlar, xususan, ularning semantik tabiati hamda geneologik jihati aniqlangan. Shuningdek, kosmonimlar asosida yuzaga kelgan metafora, o‘xshatish va ma’nodoshlik hodisalari, ma’no kengayishi va torayishi kabi semantik o‘zgarishlar hamda bir o‘zakdan yasalgan leksik birliklar tahlilga tortilgan.*

Kalit *so‘zlar: kosmonim, sayyora, Utárid, savábit, koinot, semantik sath, metafora.*

КОСМОНИМЫ, УПОТРЕБЛЁННЫЕ В ПОЭМЕ АЛИШЕРА НАВОИ «САБЪАИ САЙЁР»

Аннотация. *В статье рассматриваются космонимы, употреблённые в лексике поэмы Алишера Навои «Сабъаи сайёр», в частности определяются их семантическая природа и генетическое происхождение. Кроме того, анализируются метафора, сравнение и синонимия на основе космонимов, такие семантические изменения, как расширение и сужение значения, а также однокоренные лексические единицы.*

Ключевые слова: *космоним, планета, Utárid, savábit, вселенная, семантический уровень, метафора.*

COSMONYMS USED IN ALISHER NAVOI’S EPIC POEM SAB’AI SAYYOR

Abstract. *This article examines the cosmonyms used in the vocabulary of Alisher Navoi’s Sab’ai Sayyor, identifying in particular their semantic nature and genetic origin. It also analyzes metaphor, simile and synonymy based on cosmonyms, semantic changes such as broadening and narrowing of meaning, and lexical units derived from a common root.*

Keywords: *cosmonym, planet, Utárid, savábit, universe, semantic level, metaphor.*

O‘tmishda osmon jismlari inson hayotining ajralmas qismiga aylangan va kishilar har bir kosmik obyektning xususiyatlarini yaxshi bilgan hamda bu haqdagi bilimlarni keyingi avlodlarga qoldirgan[1]. Turkiy xalqlarning yulduz ilmini o‘rganilishi bo‘yicha V.A.Nikonov osmon jismlari nomlarining qaysi hududlarda, aholining qaysi qatlamlarida qay darajada tarqalganligi kabi masalalar bilan etnograflar ham, til tarixchilari ham, shevashunoslar ham shug‘ullanmaganligini, aslida kosmonimlarni o‘rganish har bir fan uchun, qolaversa, bu xalqlar tarixi uchun juda muhimligini ta’kidlaydi[2]. V.D.Bondaletov kosmonimlarni ko‘proq toponimlarga va qisman antroponimlarga o‘xshashini, toponimlar Yerdagi obyektlarni ifodalagani kabi kosmonimlar fazodagi jismlar nomini ifodalashi nuqtai nazaridan o‘ziga xos “osmon toponimiyasi” turini tashkil qilishini ta’kidlagan[3]. Kosmonimlar bo‘yicha o‘zbek tilshunosligida bir qancha ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Chunonchi, H.Dadaboyev, Z.Hamidov, Sh.Bobojonov, Sh.Yoqubov, Q.Karimov, Z.Yunusova, I.Bakirova, Sh.Egamova, A.Primovlarning tadqiqotlari ma’lum[4].

1 Примов А. Ўзбек тили космонимларининг лисоний хусусиятлари. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2009. –Б. 29.

2 Никонов В.А. География названий Млечного Пути // Ономастика Востока, – М., 1979. – С. 242-261.

3 Бондалетов В.Д. Русская ономастика. –М.: Просвещение, 1983. – С.199.

4 Дадабаев Х. Астрономические наименования в старотюркских письменных памятниках XI-XIV вв. // Историко-лингвистический анализ лексики старописьменных памятников. – Тошкент: Фан, 1994. – С.43; Дадабоев Ҳ. Астрономик терминлар тарихидан // Ўзбек тили терминологияси ва унинг тараққиёт преспективалари. – Тошкент: Фан, 1986. – Б. 94-96; Ҳамидов З. “Садди Искандарий” лексикасида самовий тимсоллар // Тилшуносликнинг долзарб муаммолари. – Тошкент: Университет, 2002. – Б. 87; Бобожонов Ш. Ўзбек тили астрономик терминларини тартибга солиш масалалари бўйича айрим мулоҳазалар // Ўзбек тили терминологияси ва унинг тараққиёт перспективалари. – Тошкент: Фан, 1986. – Б. 79-80; Shu muallif: Астрономик атоқли номларни ифодаловчи терминлар хусусида // Ономастика Узбекистана. – Ташкент, 1989. – С. 156-157; Ёқубов Ш. Алишер Навоий асарларида астронимларнинг ишлатилиши //Ўзбек тилшунослигига оид тадқиқотлар. IV. – Тошкент, 1992.

Insoniyat qadimdan osmon jismlarini qiziqib kuzatgan hamda ularga turli ot berishga harakat qilgan. Bu jihat muayyan xalqning dunyoqarashi, mifologiyasi va madaniyatini o‘zida aks ettiruvchi til yodgorliklar manbalarida aksini topgan. Chunki har bir astroponim zaminida o‘sha davr jamiyati dunyoqarashi va til tafakkuri yotadi. Alisher Navoiyning “Saba’i sayyor” dostonida qo‘llangan kosmonimlarni quyidagi guruhlarga ajratgan holda o‘rganishni ma’qul topdik:

1) sayyora nomini bildiruvchi leksik birliklar: Muštariy, Atárid, Kayván, Qamar, Zuhal, Utárid, savábit, sayyára va h.k.;

Adib “Saba’i sayyor” dostonining birinchi bobida sayyoralar olami, kosmologik mifologiya bilan bog‘liq holda dunyoning yaratilishi, koinot sirlari va burjlarga aloqador falsafiy qarashlarni bayon etgan. U dostonda yetti kecha, yetti hikoyat, haftaning yetti kuni, unga homiylik qiladigan yetti sayyora, u bilan bog‘liq yetti iqlim, yetti qasr, yetti go‘zal, yetti rang, yetti sayohatchi motivlarini mohirona tasvirlagan. Unda Xudo olamning yaratuvchisi sifatida hamd etiladi hamda yetti raqamiga alohida e’tiborni qaratib, badiiy san’atlardan iltizomni qo‘llagani holda falakning yetti qavat ekanligi, yetti gumbazdan tashkil topgani, yer yuzi yetti iqlimga bo‘lingani, yetti ko‘k, yetti yulduz (haftaning kunlariga nisbat berilgan) haqida fikr yuritadi.

“Oy, sayyora” (ANATIL, IV, 28) semasidagi arabcha qamar istilohi qamar(un) shakliga ega bo‘lib (ARS, 658), qamira fe’lining “qordek oppoqligi ko‘zga ta’sir qildi” ma’nosi bilan (ARS, 658) hosil qilingan I bob masdari bo‘lib (UAYa, 568), “oy (planeta)” ma’nosini anglatadi (ARS, 658; O‘TIL, IV, 39). Doston tarkibidan bir o‘rinda joy olgan:

Ey Qamar, sen qalamtarášïm yïγ,
Qïl hiláliŋniŋ učidin aŋa tïγ (322).

Quyosh tizimidagi ikkinchi sayyora Venera atalib, qadimgi Rim mifologiyasidagi sevgi va go‘zallik ma’budasi sharafiga qo‘yilgan5. Ushbu kosmonim qadimgi astroponimlarning tavsifi bo‘yicha yettinchi falakda joylashgan hamda Zuhal sayyorasining nomi ekanligi ta’kidlangan6. Bu arabcha so‘z asli zuhrat(un) ko‘rinishiga ega bo‘lib (ARS, 336), o‘zbek tiliga so‘z oxiridagi t tovushi tashlab qabul qilingan: zuhrat – zuhra. “Yorqin nur sochdi” ma’nosini ifodalovchi zahara fe’lining (ARS,336) I bob masdari bo‘lib (UAYa, 568), “yorqinlik” ma’nosini anglatadi. Arab tilida bu astraponim aniqlik artikli bilan al zuhrat(un) shaklida ishlatilsa, Venera yuzduzining nomi bo‘ladi (ARS,336; O‘TEL, 152-153). Mazkur astraponim hozirgi o‘zbek adabiy tilida “quyosh sistemasidagi katta sayyoralardan biri – Veneraning arabcha nomi” tarzida qo‘llanmoqda (O‘TIL, VI, 389). Shuningdek, bu so‘z egizak farzandnig qiz bolalariga ism sifatida ham ishlatiladi. “Navoiy asarlari lug‘ati”da “Cho‘lpon yulduzi – Venera (shoirlar, osmon cholg‘uchisi, sozandasi)” sememasida qo‘llangan:

Qïldï čun Zuhra sarï áhangin,
Zuhra yašurdï vahmidin čangin (290).

Ushbu istiloh badiiy adabiyotda “osmon cholg‘uvchisi, sozandasi, san’at homiysi, nafosat ramzi” sifatida ham talqin etiladi.

Sayyoralarning eng ustidagi birinchi yulduz Sekäntir Zuhal yulduzi sanaladi. Sayfi Saroyining “Guliston bit turkiy” asarida forscha kayvân so‘zi qo‘llangan7. Kayvân yulduzi Zuhal yulduzi demakdir. Ushbu istiloh arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, ilk bor “Qisasi Rabg‘uziy”da uchraydi8. “Quyosh tizimidagi to‘qqizta sayyoradan biri, quyoshdan uzoqligi bo‘yicha oltinchi sayyora” (O‘ME, 215-216), “quyosh sistemasidagi katta sayyoralardan biri – Saturnning arabcha nomi” (OTIL, VI, 388), “Saturin sayyorasi” (NAL, 260) kabi ma’nolarni ifodalangan:

Máhrux burj üstidä házir,
Mehri anvar Zuhal sarï názir (477).

Sayyára arab tilidagi sayyár so‘zining -at(un) qo‘shimchasi qo‘shilgan shakli bo‘lib (UAYa, 240), o‘zbek tiliga so‘z oxiridagi t tovushi tashlab qabul qilingan; arab tilida “planeta, avtomobil” ma’nolarini anglatadi (ARS, 386; O‘TEL, II, 370), “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da: 1) muqim turar joyi yo‘q, darbadar kezuvchi, darbadar; 2) astr. Quyosh atrofida

– Б. 97-98; Каримов Қ. Буржларнинг туркча номи ҳақида //Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1962. – № 1. – Б. 71-73; Юнусова З. Навоий асарлари тилидаги “юлдуз” лексемасининг маъно қирралари // Навоийга армуғон. Тўртинчи китоб. – Тошкент: Фан, 2004. – Б. 147-152; Бакирова И. Навоий асарларида сайёра номлари // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. Илмий мақолалар тўплами. – Тошкент, 2008. №2. – Б.128; Эгамова Ш. Увайсий шеъриятида самовий тимсоллар. // Тилшуносликнинг долзарб муаммолари. – Тошкент: Университет, 2002. – Б. 98; Ёқубов И., Матёқубова Т. Огаҳий ижодида космогоник мифология талқини // Огаҳий абадияти. – Тошкент: Ўзбекистон, 1999. – Б. 118; Примов А. Ўзбек тили космонимларининг лисоний хусусиятлари. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2009. –140 б.

5 Примов А. Ўзбек тили космонимларининг лисоний хусусиятлари. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – Б. 16.

6 Носиров О., Юсупов М. Аннаъим (арабча-ўзбекча луғат). – Тошкент: Халқ мероси, 2003. – Б. 337.

7Дадабаев Х. Астрономические наименование в старотюркских письменных памятников XI-XIVвв. Историко лингвистический анализ лексики старописьменных памятников. – Ташкент: Фан, 1994. – С. 35.

8 Дадабоев Ҳ., Ҳамидов З., Холманова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 52.

aylanuvchi va undan nur oluvchi sharsimon osmon jismi (IV, 578), Navoiy asarlari tilida “sayr etuvchi yulduz, planeta” (ANATIL, III, 27) ma’nosini ifodalangan:

Kim anïŋdek Suhayl-i sayyára,
Čarx zulmidin olγay ávára? (531)

2) yerning tabiiy yoʻldoshini anglatuvchi kosmonimlar: hilál, badr, mah, ay va h.k.;

“Yangi chiqqan oy” (OʻTIL, II, 386) sifatida ta’riflangan arabcha hilál istilohi Sh.Rahmatullayevning “Oʻzbek tilining etimologik lugʻati”da hilal(un) shakliga ega boʻlib (ARS, 857), oʻzbek tiliga hoyi hutti undoshini h undoshiga, choʻziq ā unlisini â unlisiga almashtirib qabul qilingan: hilāl→hilâl. Darhaqiqat, ushbu oʻzlashma halla fe’lining “koʻrindi” ma’nosi asosida (ARS, 856) hosil qilingan (II, 585). Eski oʻzbek adabiy tilida “yangi oy; goʻzallarning yarim oy shaklidagi chiroyli qoshi” (ANATIL, IV, 180) kabi ma’nolarda qayd etilgan. Asar matnida yetti oʻrinda har ikki semada ifodalangani kuzatildi:

Tänin aylab hiláldek xasta,
Anïŋ ikki hiláli payvasta (377).

Yuqorida keltirilgan baytda adib Diloromning payvasta hilol qoshlari bilan Bahromning hiloldek, nozik va hasta qilib qoʻyganligi ta’kidlaydi. Bu yerda muallif koʻchim turlaridan metafora san’atidan mohirona foydalangan.

Darhaqiqat, hilál kosmonimi badr-máh-ay singari leksik astraponimlar bilan oʻzaro ma’nodoshlikni yuzaga keltirgan:

Kim quyáš nurini nihán qïlšï?
Badrni mis tabaq gumán qildï?(633)

Mazkur baytning izohida “quyosh nurini hech kim yashira olmasligini hamda oyni mis lagan deb hech kim oʻylamasligi” ma’nosida ifodalangan. Ma’lumki, badr istilohi oyning toʻlishgan sargʻish oltin rangdagi holatiga nisbatan qoʻllanadi. Mis tabaq esa qadimda koʻp qoʻllangan, dumaloq, sargʻish rangdagi yassi idish hisoblanadi. Adib bu yerda oyning tuzilishi va rangini toʻgʻridan-toʻgʻri sayqallangan mis idishga qiyoslagan.

Eski oʻzbek adabiy tilida forscha máh istilohi toʻrtta semada: 1) oy (vaqt oʻlchov birligi); 2) oy (planeta); 3) goʻzal, sevgili, mahbuba, oy yuzli; 4) nur tarqatuvchi, yorituvchi; obod qiluvchi ma’nolarida qoʻllanganini kuzatish mumkin (ANATIL, II, 320-321). Asarda toʻqqiz oʻrinda quyidagicha aks etgan:

oy, yil: Saltanat sürdi máh ta máhi,
Máh ta máhi el šahanšáhi (338).

koʻchma goʻzal, sevgili, mahbuba, oy yuzli:

Xájani bašladilär ul sarï,
Ki nihán erdi máh ruxsári (425).

nur tarqatuvchi, yorituvchi; obod qiluvchi:

Emdi jazm äylädi ki šáhdur ul,
Saltanat avji üzrä máhdur ul (411).

Shuni ta’kidlash joizki, tahlil qilinayorgan ushbu oʻzlashma hozirgi oʻzbek adabiy tilida ma’no torayishga uchrab, faqat “oy” sememasida ishlatilmoqda (OʻTIL, III, 216).

3) osmon jismlari nomlari: čarx, aflák, falak, falakmánand, falakvár, fazá, gardun, gunbad/gunbaz, kök, káinát, ásmán, sipehr va h.k.;

Eski oʻzbek adabiy tilida “falaklar, osmonlar, osmon qavatlari” (ANAL, I, 172-173) ma’nosida aflák oʻzlashmasi asarda oʻn oʻrinda ishlatilgan:

Yana bir buki davra-yi aflák,
Gar vujudumnï qïldï toda-yi xák (624).

“Yerdan yuqoriga qaraganda gumbaz, qubba shaklida boʻlib koʻrinadigan fazo boʻshligʻi, osmon gumbazi; osmon, koʻk” (OʻTIL, IV, 321) semasidagi arabcha falak (ANATIL, III, 312) oʻzlashmasi falakvár – falakmánand – falakpayvand astroponimlari bilan oʻzakdosh soʻz boʻlib, asarda quyidagicha qoʻllangan:

Boyla yazdïki: čun sipehr-i baland,
Qïldï jáhïn anïŋ falakpayvand (388).

Bir falakvár marγzár erdi,
Tola atlïγ bilä šikár erdi (607).

Ikki polád ešik falakpayvand,
Rang ilä sayr ara falakmánand (438).

4) yoritqich nomlari: kün, áftab, günäš, quyaš va h.k.;

“Quyosh sistemasiga oid markaziy jism – oʻzidagi termoyadroviy reaksiyalar hisobiga yorugʻlik va issiqlik tarqatuvchi (chiqaruvchi) ulkan gazsimon shar shaklidagi yoritqich”, “shu jismdan taraluvchi nur, issiqlik” (OʻTIL, IV, 314) kabi bir necha semani oʻzida mujassam qilgan quyosh leksemasi eski turkiy tilda “jazirama”, “eng issiq harorat” ma’nosini anglatgan. Bu ot asli quyash tarzida talaffuz qilingan (Devon, III, 187; DTS, 464). Keyinchalik oʻzbek tilida a unlisi â unlisiga almashgan: quyash >quyâsh. Bu soʻzning planeta nomi sifatida ishlatilishi ma’no taraqqiyoti natijasida qadimgi turkiy tildayoq yuzaga kelgan (Devon, II, 390): “eng issiq harorat” – “issiqlik taratuvchi samoviy jism” (OʻTEL, I, 572). L.Budagov lugʻatida quyash tarzida ifodalanib, “quyosh” (BD, II, 98), Navoiy asarlari tilida: “quyosh, kun; jamol, koʻrk; goʻzal, mashuqa, tarso qiziga ishora” (ANATIL, IV, 74) ma’nosini ifodalagan:

1) quyosh, kun: Čun očïldï bulut, köründi quyaš,
Tüštä körgän quyašï boldï fáš (402).
2) jamol, koʻrk: Yüz yašurγač quyaš dilárámï,
Sačtï aškin sipehr bahrámï (373).

S.Sda “quyosh, oftob” ma’nosi turkiycha quyaš, günäš; forscha-tojikcha mehr istilohlari bilan ifodalangan. Mehr soʻzi koʻproq nazmda qoʻllanishda boʻlgani va oʻziga xos uslubiy boʻyoqdorligi bilan xarakterlanadi.

5) burj va muchal nomlari: Aqrab, Asad, Dalv, Hamal, Hut, Jady Javzá, Hamal, Mizán, Qavs, Savr va h.k.;

6) yulduz nomlari: Zuhá, Yeti kavkab, anjum, kavkab, kavákib, axtar, sitára, sábitát, nujum, najm, yulduz va h.k.;

“Qizigan gaz (plazma)lardan tarkib topgan, tabiatiga koʻra Quyoshga oʻxshaydigan, kechasi nur sochuvchi nuqta boʻlib koʻrinadigan osmon jismi”, “bir necha oʻtkir uchli geometrik shakl hamda shunday shaklga ega boʻlgan narsa”, “koʻchma Mashhur boʻlib tanilgan, shuhrat qozongan shaxs haqida”, “Yulduz (xotin-qizlar ismi)” (OʻTIL, VI, 270) ma’nosini anglatuvchi yulduz leksemasi qadimgi turkiy tilda “nurlanishni (yaltirashni)” ifodalovchi yalt, yult tasvir soʻzidan -ы qoʻshimchasining -u shakli bilan yasalgan fe’lga -z qoʻshimchasini qoʻshib yasalgan (ESTYa, IV, 280; PDP, 390); qoʻshimcha qoʻshilganidan keyin t undoshi d undoshiga almashgan (Devon, III, 47; DTS, 278): (yult + u = yultu-) + z = yultuz > yulduz (OʻTEL, I, 183-184). Navoiy asarlari tilida ham “yulduz” ma’nosini ifodalagan:

Biri der ranjkim qoyar aŋa yüz,
Táli’ salïban suγa yulduz (454).

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy “Sab’ai sayyor” dostonidagi osmon jismlari yordamida yetti iqlimning rang-barangligini, har bir sayyora oʻzgacha majoziy ma’noga egaligini tasvirlaydi. Xossatan, har bir sayyorani ifodalashda Bahromning shodlik, xursandchilik, muhabbat va adolat yoʻlidagi sinovlarini boshqaruvchi ma’naviy mezon sifatida xizmat qilgan. Bu esa asarning bugungi kun kitobxoniuchun axloqiy va tarbiyaviy ahamiyati naqadar yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Sab’ai sayyor. X jildlik, VII jild. –Toshkent: Gʻafur Gʻulom, 2013. –275-644 b.

2. Бобожонов Ш. Ўзбек тили астрономик терминларини тартибга солиш масалалари бўйича айрим мулоҳазалар // Ўзбек тили терминологияси ва унинг тараққиёт перспективалари. – Тошкент: Фан, 1986. – Б. 79-80.

3. Бобожонов Ш. Астрономик атоқли номларни ифодаловчи терминлар хусусида // Ономастика Узбекистана. – Ташкент, 1989. – С. 156-157.

4. Бондалетов В.Д. Русская ономастика. –М.: Просвещение, 1983. – С.199.

5. Бакирова И. Навоий асарларида сайёра номлари // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. Илмий мақолалар тўплами. – Тошкент, 2008. №2. – Б.128.

6. Дадабоев Ҳ. Астрономик терминлар тарихидан // Ўзбек тили терминологияси ва унинг тараққиёт преспективалари. – Тошкент: Фан, 1986. – Б. 94-96.

7. Дадабаев Х. Астрономические наименование в старотюркских письменных памятников XI-XIVвв. Историко лингвистический анализ лексики старописьменных памятников. – Ташкент: Фан, 1994. – С. 35.

8. Дадабоев Ҳ., Ҳамидов З., Холманова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 52.

9. Ёқубов Ш. Алишер Навоий асарларида астронимларнинг ишлатилиши //Ўзбек тилшунослигига оид тадқиқотлар. IV. – Тошкент, 1992. – Б. 97-98.

10. Ёқубов И., Матёқубова Т. Огаҳий ижодида космогоник мифология талқини // Огаҳий абадияти. – Тошкент: Ўзбекистон, 1999. – Б. 118.

11. Каримов Қ. Буржларнинг туркча номи ҳақида //Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1962. – № 1. – Б. 71-73.

12. Никонов В.А. География названий Млечного Пути // Ономастика Востока, – М., 1979. – С. 242-261.

13. Носиров О., Юсупов М. Аннаъим (арабча-ўзбекча луғат). – Тошкент: Халқ мероси, 2003. – Б. 337.

14. Примов А. Ўзбек тили космонимларининг лисоний хусусиятлари. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2009. –Б. 29.

15. Эгамова Ш. Увайсий шеъриятида самовий тимсоллар // Тилшуносликнинг долзарб муаммолари. – Тошкент: Университет, 2002. – Б. 98.

16. Юнусова З. Навоий асарлари тилидаги “юлдуз” лексемасининг маъно қирралари // Навоийга армуғон. Тўртинчи китоб. – Тошкент: Фан, 2004. – Б. 147-152.

17. Ҳамидов З. “Садди Искандарий” лексикасида самовий тимсоллар // Тилшуносликнинг долзарб муаммолари. – Тошкент: Университет, 2002. – Б. 87.

Shartli qisqartmalar

ANAL – 2013. Fozilov E.I. Alisher Navoiy asarlari lug‘ati. – Toshkent.

ANATIL – 1983-1985. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. I-IV. –Toshkent: Fan.

DLT – Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. I-III. – Тошкент: Фан, 1960-1963. Т. I. 1960. – 499 б.; Т. II. 1961. – 427 б.; Т. III. 1963. – 461 б..

S.S. – 2013. Alisher Navoiy X jildlik, VII jild. Sab’ai sayyor. – Toshkent.

TjRS – Таджикско-русский словарь. – М.: Государственное издателство иностранных и насионалный словарей, 1954. – 789 с

O‘TIL– Ўзбек тилининг изоҳли луғати. И-В. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008. Т. И. 2006. – 679 б.; Т. ИИ. 2006. – 671 б.; Т. ИИИ. 2007. – 687 б.; Т. ИВ. 2008. – 608 б.; Т. В. 2008. – 591 б.

O‘TEL– 1) Раҳматуллаев Ш. 2000. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). –Тошкент: Университет. 2) Раҳматуллаев Ш. 2001. Ўзбек тилининг этимологик луғати. II (араб сўзлари ва улар билан ҳосилалар). –Тошкент: Университет. 3) Раҳматуллаев Ш. 2009. Ўзбек тилининг этимологик луғати. III (форсча-тожикча, тожикча бирликлар ва улар билан ҳосилалар). –Тошкент: Университет. 2009.